



ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO‘LINMALARI TOMONIDAN TEZKOR QIDIRUV TADBIRLARINI O‘TKAZISH TARTIBI VA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Qudratov Azizbek Toshtemir o‘g‘li

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tarkibidagi tezkor bo‘linmalarining faoliyati, ularning tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazish tartiblari va ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari tezkor qidiruv faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *ichki ishlar organlari, tezkor qidiruv, tezkor qidiruv tadbirlari, so‘rov, experiment, ma‘lumotnoma.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida “Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani biz uchun eng asosiy mezon bo‘lishi shart. Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” - deya ta‘kidlagan edi. Shu maqsadda jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko‘rish yuzasidan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan amalga oshirilgan tezkor-qidiruv faoliyati natijalari muhim o‘rin tutadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish tarixi guvohlik berishicha, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish, bartaraf etish va fosh etish, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topish uchun faqat oshkora jinoyat-prosessual va boshqa vositalar yetarli bo‘lmasdan, boshqa samarador vositalarni qo‘llash taqozo etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish, balki jinoiy hodisa va jarayonlar rivojlanishi ustidan nazorat o‘rnatish muhim vazifa hisoblanadi.

Shu bilan birga, amaldagi Jinoyat-prosessual Kodeksi muntazam takomillashtirib borilayotganiga qaramasdan, sud-tergov amaliyotini tahlil qilish va fuqarolar murojaatlarini o‘rganish natijalari tizimda ba‘zi bir kamchiliklar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan, qonunchilikda tezkor-qidiruv faoliyati, uning natijalaridan foydalanishga oid normalarning mukammal emasligi, tezkor-qidiruv faoliyati davomida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash bo‘yicha mexanizmlar to‘liq ishga solinmaganligi, qonunchilikda bo‘shliqlar mavjudligi, bir qator muammo, kamchiliklar va bahsli holatlar borligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan jinoyatchilikni oldini



olish, sodir etilayotgan jinoyatlarni tezkorlik bilan ochish, mamlakatimizda tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga ta'minlash yuzasidan amalga oshirayotgan salmoqli ishlarini qayd etish barobarida, mazkur faoliyatini amalga oshiruvchi ayrim hodimlari tomonidan faoliyat natijasida ushlangan shaxslarning himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlamaslik, tezkor-qidiruv tadbirida ishtirok etgan boshqa shaxslarning qo'shtirnoq ichidagi "Sayi harakatlari" natijasida shaxsni jinoyat sodir etishga undash orqali go'yoki tezkor ma'lumotlar asosida tezkor tadbir o'tkazish, buning natijasida bir shaxsni jinoyatchiga aylantirish bilan o'zlari oldiga qo'yilgan rejani bajarish, jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali faoliyat yuritayotgandek ko'rsatish hollari yuzasidan fuqarolarning haqli e'tirozlari uchrab turibdi. Mazkur holatlar jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish, jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli yakun topishi, fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va sudga nisbatan ishonchi susayishi bilan bog'liq muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda hamda ushbu institut takomillashtirishga muhtoj ekanligini ko'rsatmoqda.

Tezkor-qidiruv faoliyatida qonunchilikka rioya etish, ma'lumotlar olish jarayonlari ancha yopiq tarzda tashkil etilgani sababli uning qonuniyligi, amalga oshirish jarayonida qonunchilikka rioya etilishi, ma'lumotlarning haqiqiyliги yuzasidan juda ko'p savollar tug'ilishiga sababchi bo'lmoqda. Aynan shu muammolarni bartaraf qilish maqsadida, "Xabeas Korpus" institutini yanada kengaytirish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish muhim sanaladi. Xalqaro huquq va xorijiy amaliyotda o'zining ijobiy natijasini berayotgan amaliyotni milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda qonunchiligimizga implementasiya qilish o'zining ijobiy natijasini beradi. Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini belgilab bergan 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi islohotlarning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bosqichi bo'ldi. Shaxsning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, prosessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat prosessida dalillarni to'plash va mustahkamlash, ularga baho berish tizimini ilg'or xorijiy tajribada keng qo'llaniladigan isbotlash standartlarini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqilmoqda.

2012-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi O'RQ—344-son qonuniga ko'ra Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki himoya qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash;



jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish;

surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yo‘qolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash;

shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to‘plash hisoblanadi.

Qonunga ko‘ra tezkor qidiruv faoliyatini cheklangan organlar tomonidan amalga oshirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining hududida tezkor-qidiruv faoliyatini Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati Mudofaa vazirligi harbiy razvedkasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining organlari amalga oshiradi.

Boshqa davlat organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi. Ushbu organlar tomonidan quyidagi tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkaziladi:

so‘rov — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bilgan yoki bilishi mumkin bo‘lgan shaxs bilan bevosita muloqotda bo‘lish jarayonida axborot olishdan iborat bo‘lgan tadbir;

ma‘lumotlar to‘plash — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun hujjatlarni, materiallarni, ma‘lumotlar bazalarini axborot tizimlarini va axborot resurslarini o‘rganish, shuningdek so‘rovnomalar yuborish orqali jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar haqida ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni, shu jumladan bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni olishga qaratilgan tadbir;

qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida moddiy obyektlarni kelgusida qiyosiy tekshirish uchun olishdan iborat bo‘lgan tadbir;

tekshirish uchun xarid qilish — yuridik yoki jismoniy shaxslardan tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlarni yoki xizmatlarni haq evaziga xarid qilishdan iborat bo‘lgan tadbir;

nazorat ostida olish — yolg‘ondan bitim tuzishdan, ya‘ni qonunchilik buzilishi faktini aniqlash va hujjatlashtirish uchun tovarlarni, valyuta qimmatliklarini, moddalarni hamda boshqa predmetlarni iste‘mol qilish yoki sotish maqsadini ko‘zlamasdan olishdan iborat bo‘lgan tadbir;

predmetlarni va hujjatlarni tekshirish — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida predmetlarni va hujjatlarni o‘rganish uchun zarur ilmiy, texnikaviy va boshqa maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb etgan holda o‘tkaziladigan tadbir;



tezkor kuzatuv — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish maqsadida shaxslarning harakatlarini, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etishdan iborat bo‘lgan tadbir;

shaxsning aynanligini aniqlash — tekshirilayotgan yoki qidiruvdagi shaxsning shaxsini identifikatsiya qilish yoxud xususiy belgilari asosida aniqlashdan iborat bo‘lgan tadbir;

turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar hamda holatlarni aniqlash maqsadida turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, kompyuterlarni, aloqa qurilmalarini va transport vositalarini bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) ko‘zdan kechirish hamda o‘rganishdan iborat bo‘lgan tadbir;

pochta, kuryerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish maqsadida pochta, kuryerlik jo‘natmalari hamda telegraf xat-xabarlarini nooshkora tanlab olish va o‘rganishdan iborat bo‘lgan tadbir;

telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish — maxsus texnik vositalardan foydalangan holda olib boriladigan so‘zlashuvlarni, shu jumladan uzatiladigan matnli, grafik va multimedia axborotini nooshkora eshitib turish, tutib qolish va qayd etishdan iborat bo‘lgan tadbir;

abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish — abonentlar yoki abonent qurilmalari (foydalaniladigan asbob-uskuna) o‘rtasidagi bog‘lanishlar sanasi, vaqti, davomiyligi to‘g‘risida axborot va boshqa ma’lumotlarni nooshkora olishdan iborat bo‘lgan tadbir;

tezkor kiritish — tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ xodimini yoxud maxfiylik asosida ko‘maklashuvchi shaxsni jinoiy-kriminogen muhitga yoki tezkor ahamiyatga ega bo‘lgan obyektga tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida kiritishdan va ularning imkoniyatlaridan nooshkora foydalanishdan iborat bo‘lgan tadbir;

nazorat ostida yetkazib berish — erkin realizatsiya qilinishi taqiqlangan yoki muomalasi cheklangan yoxud jinoyat obyekti, predmeti va quroli bo‘lgan tovarlar, valyuta qimmatliklari, moddalar va boshqa predmetlar olib o‘tilishini (tashilishini, jo‘natilishini, topshirilishini) tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida nooshkora nazorat qilishdan iborat bo‘lgan tadbir;

niqoblangan operatsiya — ikki yoki undan ortiq tezkor-qidiruv tadbirini tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida oshkora va nooshkora usullardan foydalangan holda o‘tkazishni o‘z ichiga oladigan kompleks tadbir;

tezkor eksperiment — g‘ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko‘rayotgan shaxslarni fosh etish va aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini



amalga oshiruvchi organ tomonidan to'liq boshqariladigan va nazorat qilinadigan sharoitni muayyan hodisani qaytadan tiklash yo'li bilan sun'iy ravishda vujudga keltirishdan iborat bo'lgan tadbir.

Tezkor-qidiruv tadbirlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda, shu jumladan kibermakonda va (yoki) uning imkoniyatlaridan foydalanilgan holda o'tkazilishi mumkin.

Turar joy daxlsizligiga, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar va boshqa so'zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqlarni cheklovchi, shuningdek abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risidagi axborotni olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishiga prokuror sanksiyasi asosida yo'l qo'yiladi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishiga prokuror sanksiyasi asosida yo'l qo'yiladi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno. Fuqarolarning hayotiga, sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, xuddi shuningdek ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan tahdid yuzaga kelgan taqdirda, ularning telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olishga mazkur shaxslarning arizasiga yoki yozma roziligiga ko'ra, qonunchilikka muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tasdiqlagan qaror asosida ruxsat etiladi, prokuror bu haqda yigirma to'rt soat ichida albatta xabardor qilinadi.

Prezident tomonidan imzolangan Qonun (O'RQ-920-son, 13.03.2024 y.) bilan ayrim normativ huquqiy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

«Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi Qonunga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, tezkor-qidiruv tadbirlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda, shu jumladan kibermakonda va uning imkoniyatlaridan foydalanilgan holda o'tkazilishi mumkin bo'ldi.

«Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida»gi Qonunga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, maxsus qabulxonalardagi tezkor-qidiruv faoliyati jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rishga va ularni sodir etishga daxldor bo'lgan shaxslarni aniqlash, topish hamda qidirish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Shu bilan birga «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunga jinoyatlarning holatlarini aniqlash, jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlash va qidirish, shuningdek jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan yoki bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanishga doir ichki ishlar organlarining huquqlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



2. O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonuni
4. Tezkor-qidiruv faoliyati. Darslik. B. Karimov. 2020. Toshkent. 474 bet
5. "Tezkor-qidiruv faoliyati togrisida"gi Qonuniga ilmiy-amaliy sharh, B. Karimov. Toshkent.
6. Tezkor-qidiruv faoliyati. Darslik. A.K.Zakurlyayev, Yu.S.Po'latov. 2014. Toshkent.